



BADIIY TARJIMA TAHRIRI VA PROFESSIONAL TAHRIRNING MUTARJIM MAHORATIGA TA'SIRI (Paulo Kaeloning “Alkimyogar” asari talqinida)

Sultanova Shahnoza

*Oliy jurnalistika kurslari 2-bosqich magistranti
O'zbekiston Jurnalistika va Ommaviy
Kommunikatsiyalar Universiteti*

Annotatsiya: Ushbu maqolada tarjima, tahrir va professional tahrir o'rtasidagi uzviy bog'liqlik ayrim mezonlar asosida ko'rib chiqiladi. Ularning o'rtasidagi farq va o'xshashliklar Paulo Kaeloning “Alkimyogar” asari (ingliz va o'zbek tilidagi tarjima asari ko'rinishi)dan parchalar orqali misollar bilan keng va batafsil yoritiladi. Tarjimashunos olimlarning tajriba va o'quv-qo'llanmalaridan foydalanilgan holda professional tarjima darajasiga olib chiqishda tahrirning ham katta ahamiyati bor ekanligini ayrim tarjima mezonlariga tayangan holda tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: tarjima matn, tarjima, tahrir, tahrir mezonlari, tarjima mezonlari, professional tahrir va tarjima.

Annotation: In this article the inseparable link among translation, edition and professional edition is going to be analyzed relying on some criterions. The differences and the similarities among them are going to be analyzed in deep by fragments and examples of “The Alchemist” (translations: Uzbek, English) by Paulo Coelho. According to the linguists and their piece of work and experience it is going to be analyzed that there is a big role of edition in order to make professional translation.

Key words: translated text, translation, edition, criterions of edition, criterions of translation, professional edition and translation.

Аннотация: В данной статье будет проанализирована неразрывная связь между переводом, изданием и профессиональным изданием с учетом некоторых критериев. Различия и сходства между ними будут подробно проанализированы на фрагментах и примерах «Алхимика» (переводы: узбекский, английский) Пауло Коэльо. Согласно лингвистам, их работе и опыту, будет проанализировано, что редакция играет большую роль в профессиональном переводе.

Ключевые слова: переводной текст, перевод, издание, критерии издания, критерии перевода, профессиональное издание и перевод.

Har bir zamon va makonda tarjimaga va tarjima matnlarga doim ehtiyoj bo'lgan. XXI asr axborot texnologiyalari asri boshlanishi bilan axborotlar chegara va vaqt bilmasdan ishlashni boshladi va tarjimaga bo'lgan ehtiyoj yanada kuchaydi va mukammalroq bo'lishini zamon talab qila boshladi. Globallashgan davr va axboriy jamiyatda bir tildan ikkinchi tilga qilingan tarjima mukammal tahrirni ham bo'lishi kerak ekanligi isbotladi. O'zbek tilida tarjima mezonlarini ko'pchilik mutarjim va tilshunos olimlar ishlab chiqishgan. Ammo tahrir mezonlarini qidiradigan bo'lsak, ular bo'yicha aytarli





hech narsa ishlab chiqilmagan. Professional tahrirni yaratishda tarjima va tahrir birdek mukammal bo'lsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Taniqli tarjimon Ibrohim G'afurov tarjimaning ahamiyati haqida gapirar ekan: "Har qanday milliy tilning fikrni aniq ifodalash qudrati og'zaki va yozma adabiyot amaliyotida, muloqot madaniyatida hosil bo'ladi. Tilning ifoda salohiyati esa tillardan tillarga tarjimalarda charxlanadi. Bunga ingliz, fransuz, nemis, italyan, ispan, rus, turk tillari yorqin misol bo'la oladi. Bu kabi tillar ko'p asrlik faol tarjima jarayonida mislsiz boyigan, ifoda arsenaliga ega bo'lgan", deya ta'kidlaydi [1].

Tahrir azal-azaldan bo'lgan deb biz bemalol ayta olamiz. Masalan, Husayn Bayqaro Alisher Navoiy g'azal va she'rlarini tahrir qilganlari haqida ko'plab manbalarda keltirilgan. Tahrir ko'rinishi tarjimada emas, bir tilning o'zida yuzaga kelgan davrlar bo'lgan. Hozirda ham tahrir ishlab turibdi, masalan kitob bosmaxonalarda yoki maqolalar chop etiladigan Gazeta va jurnallarda tahrirchilar bor. Undan tashqari hozirgi kunda texnologiyalar rivojlanganligi sabab tahrirchilarning ham vazifasi o'zgargan va tahrirchilarni korrespondent yoki korrektor, ba'zi joylarda vazifasi murakkablashganligiga ko'ra kopirayter ham deb yuritiladi. Tahrirning mezonlariga qaytadigan bo'lsak, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jurnalist Mahmud Sa'diy[2] fikriga ko'ra tahrirchi ko'p kitob o'qigan bo'lishi shart va tarjima-tahrir jarayonida esa o'zga tiling va tarjima qilinayotgan tilning tarixi, urf-odatlarini, dini, millati haqida chuqurroq bilimlarga ega bo'lmog'i lozim. Bundan kelib chiqiladiki, tahrirning aniq bir mezonlari yo'q, professional tarjimani yuzaga keltirish uchun esa ko'p bilimlarga ega bo'lmoq kerak. Paulo Kaeloning "Alkimyogar" asaridan olingan namunamizda: *Maybe the church, with the sycamore growing from within, had been haunted.*[3] *Эҳтимол, қарғиш теккан, нақд меҳробидан тутанжир ўсиб чиққан хароба черковда тунаб қолгани учун шундай бўлаётгандир?*[4]

Sycamore [5] bu chinor deya tarjima qilinadi, va chinorni cherkovning ichidan o'sib chiqqanligini anglatmoqda. O'zbek tilidagi tarjimada esa *mehrob* so'zi ortiqcha qo'shilgan va *tutanjir* o'simligi chinor o'rniga qo'yilgan. Ma'no ham anchayin o'zgargan. Cherkovda mehrob bo'lmaydi, yan'i mehrob o'zbek tiliga va dinga xos so'z bo'lib, namoz o'qiyotganda qiblaning qaysi tomonda ekanini ko'rsatish uchun qilingan parda yoki gilam yoki maxsus qurilgan deraza, tokcha ham bo'lishi mumkin. Tutanjir esa aynan mehrobdan o'sib chiqqan ekanligi yozilgan, chinor cherkovdan o'sgan ekanligini emas. Tahlildan xulosa shuki, o'zbek o'quvchilari tasavvur qila olishi uchun,





peyzaj tasvirini yetkazib bera olishi uchun ba'zi moddalarga o'zgartirish kiritilgan, aks holda cherkov va chinorni bir biriga bog'liq bo'la olgan holni anglash va tasavvur qilish boshqa qadriyat va din vakillariga anchayin mushkul kelib, badiiy asarning ma'nosini siyqalanishiga olib kelar edi. Va aynan shu misoldan ko'rinadiki, tarjimada tahrirni ham to'g'ri yo'naltira olish professional tarjima natijasiga olib chiqadi. Tarjima va tahrirda so'zlarni uslubiy qo'llash ham professional tarjimada muhim hisoblanadi. Masalan "Alkimyogar" asarida:

If I became a monster today, and decided to kill them, one by one, they would become aware only after most of the flock had been slaughtered, thought the boy.

“Агар бугун мен йуртқич ҳайвонга айланиб, уларга бир бошдан қирон солсам, отарнинг ярмидан кўпини нобуд қилганимдан кейингина улар нима бўлаётганини тушуниб етади, — ўйлади Сантяго.

to kill them one by one berilgan qo'shma so'zi so'zma-so'z tarjima qilinsa, *ularni birma-bir o'ldirmoq* deb tarjima qilinadi. O'zbek tilidagi variantda esa *уларга бир бошдан қирон солсам* qiron solmoq so'zi qirmoq, o'ldirmoq ma'nosida so'z birikmasi ko'rinishada berilgan. Bu o'zbek tilida ancha ma'no kuchaytirib bergan va jozibador qilgan. Albatta, tarjimonning mahorati va tahrir qilish jarayoni tarjima matni mukammallashtirgan, professional tarjima va tahrir yarata olgan.

Flock so'zini poda tarzida tarjima qilish mumkin edi, ammo, *otap* so'zidan foydalanilgan va bu yerda so'z uslubiy badiiy xoslangan. *Slaughter* so'zi ham hayvonlarni aynan go'shti uchun so'yish yoki vaxshiylarcha so'yish degan man'noni anglatadi. Tarjimada esa *нобуд қилмоқ* ekvivalentini ishlatib salgina yumshoqroq aytilgan. Ko'rinib turibdiki, tarjimon ham muharrir ham professional tarjima va tahrirga erishish uchun ko'p o'qigan va ko'p bilimga ega bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

Yana tahrir mavzusiga qaytadigan bo'lsak:

“Badiiy asar tugul, oddiy maqolaga ham jonli deb qarash lozim. Ko'pchilik matbuot xodimlari tahrir ham ish bo'ptimi, deb, qo'lga tushgan materialni boshdan bo'yab-bejashga kirishadi. Bu tahrir emas, balki taxirlik, materialning taxirini chiqarish. Xo'p, jumlani tuzatarsan, gap bo'laklarini o'rniga qo'yarsan, so'zlarni ma'nodoshi bilan almashtirarsan, nuqta-verguliga e'tibor berarsan, lekin tahrir shu bilan tugamaydida, og'ayin. She'riyatdagidek, nasrda ham jumlaning ohangi, o'xshatishlari, pichinglari, xullas, o'ziga yarasha bo'yog'i bo'ladi. O'zicha teginib, ko'kni jigarrangga aylantirib





qo'ysa, ana undan yomoni yo'q. asar buziladi. Tahrirning shu kabi nozik jihatlari ko'p".[6]

Ta'kidlab o'tganimizdek, tahrir mavzusiga ko'pchilik mas'uliyat bilan yondashmaydi va shuning uchun ham tarjima tahriri mezonlari hali-hanuzgacha ishlab chiqilmagan va aniq tasdiqlanmagan ham. Ko'pincha badiiy asar tarjima qilinib bo'lgach uni tahrirga berishadi, bu jarayonda ham agar mutarjim va moharrir bir inson bo'lsa, badiiy tarjima asar ko'proq sifatliroq chiqadi. Yuqorida aytilganidek, tarjimon tarjima qilayotgan tillarini madaniyati, millati, dini va shu tilning milliy koloritini yaxshi bilsa, shu bilan birga ko'p bilimlarga ega bo'lsa, ko'p o'qigan bo'lsa badiiy tarjima asarni yaxshi tahrir ham qila oladi va natija kutilganidek muvaffaqiyatli bo'ladi.

Paulo Kaeloning "Alkimyogar" asarida asl mohiyat umumbashar tilini ya'ni alkimyogarni topish maqsad bo'ladi. Alkimyogar tilini hamma o'zicha talqin qilib topadi va asar bosh qahramoni Santiyago esa Fotimani- arab qizini topganida butun olam tilini anglab yetadi. Aynan shu joyda o'quvchilarga to'g'ri yetqazib bera olish professional tarjima va tahrirning zimmasidadir:

Ва шунда — гўё вақт тўхтаб қолгандай бўлди, Олам Қалби унинг кўз ўнгида ўзининг бутун куч қудрати билан намоён бўлди. Қизнинг қоп-қора кўзларига, гўё жилмайшини ҳам, жим туришини ҳам билмаётгандай ҳимарилган лабларига қараб, Сантяго бир лаҳза ичида олам тиллашадиган, жамики одамлар сўзсиз, фақат юрак орқали мулоқот қиладиган тилнинг энг қадрли, энг ақлли бўлагини фаҳмлаб етди. Уни Севги деб аташади, у одам қавмидан-да қадимий, саҳродан-да кўҳна. Эр йигит ва бўй етган қиз кўзлари тўқнашганда бу туйғу беихтиёр пайдо бўлади — ҳозир, қудуқ олдида шу ҳодиса рўй берди.

At that moment, it seemed to him that time stood still, and the Soul of the World surged within him. When he looked into her dark eyes, and saw that her lips were poised between laugh and silence, he learned the most important part of the language that all the world spoke — the language that everyone on earth was capable was understanding in their heart. It was love. Something older than humanity, more ancient than the dessert. Something that exerted the same force whenever two pairs of eyes met, as had theirs here at the well.

...and the Soul of the World surged within him. - ...Олам Қалби унинг кўз ўнгида ўзининг бутун куч қудрати билан намоён бўлди. So'zma-so'z tarjima qilinganda





olam qalbi uning Ichida tug'yon urdi degan ma'no chiqar edi, ammo tarjimon va muharrir uning ko'z o'ngida degan ibora bilan gapni yanada tushunarliroq qilib yoritib bergan. Bu yerda qahramonlarning ichki kechinmalari va portret tasviri uyg'unlikda tarjima va tahrir mohironalik bilan yozilgan. Va aynan bu – asardan parcha professional tarjima va tahrirga aniq namuna bo'la oladi.

Tarjima va tahrir shu qadar ahamiyatliki, bunda o'zga tillardan aniqlik bilan o'zimizga yetqazib berishdan tashqari, o'zbek tilining sofliqi va rang-barangligini saqlab qolish va ona tilimizni Alisher Navoiy bizga meros qoldirganidek boy ekanligini badiiy asarlar ila saqlab qolishdek buyuk xizmatlar va maqsadlar ko'zlangan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ibrohim G'afurov bilan intervyu. Badiiy tarjima nusxa ko'chirish emas // O'zbekistonda xorijiy tillar. — 2015. — № 3 (7). — B. 31– 37.
2. Маҳмуд САЪДИЙ, ТАҲРИР САНЪАТИ
3. Paulo Kaelo, translated by Alan R. Clarke, The Alchemist, perfectbound, p. 7.
4. Ahmad Otaboy, Alkimyogar, b. 13.
5. Longman Dictionary <https://www.ldoceonline.com/>
6. Qadr/ H. Saidov; A.Otaboyev. – Toshkent: “Ma'naviyat”, 2009. – 160 b. (“Ma'rifat” kutubxonasi).

